“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Raqamli texnologiyalar sharoitida sud xarajatlarini hisoblash va to‘lash tizimini optimallashtirish masalalari

Nargiza Sulaymonova,
Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi dotsenti v.b.
e-mail: n.sulaymonova@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida sud xarajatlarini (davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarni) hisoblash hamda to‘lash tizimini optimallashtirishning nazariy-huquqiy va amaliy masalalari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, Prezident tomonidan ilgari surilgan“Raqamli sud”konsepsiyasi doirasidagi vazifalar tahlil qilingan. Milliy qonunchilik normalari, Oliy sudning elektron to‘lov tizimi (billing.sud.uz) va interaktiv xizmatlar portali faoliyati, shuningdek, Janubiy Koreya, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Estoniya va Xitoy tajribasi qiyosiy-huquqiy usulda o‘rganilgan. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi ko‘rsatilgan hamda sud xarajatlarini avtomatik hisoblash, sun’iy intellekt asosida xarajatlarni prognozlash, ortiqcha to‘langan bojni avtomatik qaytarish mexanizmlarini joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. sud xarajatlari, davlat boji, raqamlashtirish, elektron odil sudlov, E-SUD, “Raqamli sud” konsepsiyasi, elektron to‘lov tizimi, sun’iy intellekt, boj kalkulyatori, xorij tajribasi

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-правовые и практические вопросы оптимизации системы исчисления и уплаты судебных расходов (государственной пошлины и издержек, связанных с рассмотрением дела) в условиях цифровых технологий. Проанализирована государственная политика Республики Узбекистан в сфере цифровизации судебной системы, в частности задачи, поставленные Президентом в рамках концепции «Цифровой суд». Сравнительно-правовым методом изучены нормы национального законодательства, деятельность электронной платёжной системы Верховного суда (billing.sud.uz), а также опыт Южной Кореи, Казахстана, Великобритании, Эстонии и Китая. На основе официальных статистических данных показан экономический эффект цифровизации и разработаны научно обоснованные предложения по внедрению автоматического расчёта судебных расходов, прогнозирования расходов на основе искусственного интеллекта и автоматического возврата излишне уплаченной пошлины.

Ключевые слова. судебные расходы, государственная пошлина, цифровизация, электронное правосудие, E-SUD, концепция «Цифровой суд», электронная платёжная система, искусственный интеллект, калькулятор пошлины, зарубежный опыт

Annotation. This article examines the theoretical, legal and practical issues of optimizing the system for calculating and paying court costs (state fees and litigation expenses) in the context of digital technologies. It analyzes the state policy of the Republic of Uzbekistan on digitalization of the judicial system, in particular the tasks set by the President within the“Digital Court”concept. Using the comparative legal method, the article studies national legislation, the operation of the Supreme Court’s electronic payment system (billing.sud.uz), as well as the experience of South Korea, Kazakhstan, the United Kingdom, Estonia and China. Based on official statistics, the economic effect of digitalization is demonstrated, and scientifically grounded proposals are developed for introducing automatic calculation of court costs, AI-based cost forecasting, and automatic refund of overpaid fees.

Keywords. court costs, state fee, digitalization, e-justice, E-SUD, “Digital Court” concept, electronic payment system, artificial intelligence, fee calculator, foreign experience

Odil sudlovga erishish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi bo‘lib, uni amalda ta’minlashning muhim shartlaridan biri sudga murojaat qilish bilan bog‘liq moliyaviy yuk (davlat boji va sud chiqimlari)ning shaffof, tushunarli va qulay tarzda hisoblanishi hamda to‘lanishidir. An’anaviy tartibda davlat bojini hisoblashdagi xatoliklar, bank navbatlari, to‘lov hujjatlarini yo‘qotish, ortiqcha to‘langan bojni qaytarishning cho‘zilishi kabi holatlar odil sudlovga erishish yo‘lidagi byurokratik to‘siqlar sifatida baholanadi. Raqamli texnologiyalar esa mazkur jarayonni tubdan optimallashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim”[1]. Davlatimiz rahbari 2025-yil 14-fevraldagi sud faoliyatini yaxshilashga bag‘ishlangan yig‘ilishda esa bevosita tadqiqot mavzusiga daxldor vazifani belgilab berdi: “Sud muhokamasining taxminiy natijasi va ketadigan xarajatlarni oldindan aniqlab berish, huquqiy yordam bo‘yicha virtual maslahatchini yaratish, tayinlangan jarimalarni onlayn kuzatish va elektron shaklda to‘lash kabi imkoniyatlar odamlarga katta qulaylik yaratadi”[2]. Shuningdek, 2025-yil 21-avgustda Prezidentga taqdim etilgan sud-huquq tizimini takomillashtirish konsepsiyasida rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish asosida “Raqamli sud” konsepsiyasi ishlab chiqilgani, u korrupsiyaning oldini olish hamda fuqarolar va tadbirkorlarga ortiqcha byurokratik ovoragarchiliksiz adolatli sudlovni ta’minlashga qaratilgani qayd etildi[3]. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini Prezidentning 2017-yil 30-avgustdagi 3250-qarori[4], 2020-yil 3-sentabrdagi 6034-farmoni hamda 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini

yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 140-farmoni[5] tashkil etadi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra sud xarajatlari ikki qismdan iborat bo’lib, davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlardan (ekspert, mutaxassis, tarjimon, guvohlarga to‘lanadigan haqlar, dalillarni joyida tekshirish xarajatlari va boshqalar) iborat. Davlat bojini undirish “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonun bilan, uning miqdorlari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan, ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarni hisoblash va to‘lash tartibi esa Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-qarori bilan tartibga solingan[6]. Fuqarolik protsessual kodeksi va Iqtisodiy protsessual kodeksning tegishli normalariga muvofiq (xususan, IPKning 118-moddasi) sud xarajatlari nizoda yutqazgan tarafga yuklatiladi, talab qisman qanoatlantirilganda esa mutanosib taqsimlanadi. Amaliyotda aynan bojni to‘g‘ri hisoblash (ayniqsa, mulkiy va nomulkiy talablar qo‘shilib kelganda, da’vo chet el valyutasida ifodalanganda), ortiqcha to‘langan bojni qaytarish hamda chiqimlarni hujjatlashtirish bosqichlarida eng ko‘p xatolik va vaqt yo‘qotish kuzatiladi.

Hozirda O‘zbekistonda sud xarajatlari bilan bog‘liq quyidagi raqamli tizimlar amal qilmoqda:

a) Oliy sudning elektron to‘lov tizimi (billing.sud.uz) – davlat boji yoki sud xarajatlari uchun to‘lov kvitansiyasini yaratish, kvitansiya holatini raqam bo‘yicha tekshirish, pasport ma’lumotlari orqali shaxsga aloqador kvitansiyalarni aniqlash imkonini beradi[7];

b) Interaktiv xizmatlar portali (my.sud.uz) – davlat boji miqdorini aniqlash (boj kalkulyatori), da’vo va shikoyatlarni elektron yuborish, bojni onlayn to‘lash xizmatlarini taqdim etadi[8];

d) E-SUD milliy elektron sudlov tizimi – ish yuritishni avtomatlashtirib, to‘lov to‘g‘risidagi ma’lumotni avtomatik ravishda ish materiallariga biriktiradi[9]. Elektron to‘lovda ma’lumot tizimga avtomatik kiritilishi qog‘oz kvitansiyani taqdim etish zaruratini bartaraf etadi va soxta to‘lov hujjatlari xavfini kamaytiradi.

Raqamlashtirishning miqyosi va iqtisodiy samarasini quyidagi rasmiy statistik ma’lumotlar yaqqol ko‘rsatadi (1-jadval)[10]:

1-jadval. O‘zbekiston sud tizimini raqamlashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari (2024–2025-yillar holatiga)

Ko‘rinib turibdiki, integratsiya va elektron hujjat aylanmasi hisobiga faqat 2024-yilning o‘zida 229,4 mlrd so‘m budjet mablag‘i tejalgan[11]. Bu raqamlar sud xarajatlari bilan bog‘liq jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat fuqarolar uchun qulaylik, balki davlat uchun ham sezilarli fiskal samara ekanini isbotlaydi.

Erishilgan natijalarga qaramay, tahlil quyidagi tizimli muammolarni aniqlash imkonini berdi:

birinchidan, boj kalkulyatori tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, murakkab da’volarda (bir nechta talab, valyutadagi talab, boj imtiyozlari) hisob-kitob hali ham “qo‘lda” tekshiriladi, bu esa arizalarni qaytarish holatlariga sabab bo‘lmoqda;

ikkinchidan, ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan bojni qaytarish jarayoni sud hujjati va moliya organlari ishtirokidagi ko‘p bosqichli tartib bo‘lib qolmoqda;

uchinchidan, ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar (ekspertiza, tarjimon va h.k.) bo‘yicha yagona elektron hisob-kitob moduli mavjud emas, ular ish

yakunida taqsimlanishi taraflar uchun oldindan prognoz qilib bo‘lmaydigan moliyaviy yukni keltirib chiqaradi;

to‘rtinchidan, elektron raqamli imzo olishdagi texnik qiyinchiliklar, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli emasligi va aholining raqamli-huquqiy savodxonligi pastligi elektron to‘lov xizmatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda[12].

Shu nuqtada ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligini ko’rib chiqamiz. Masalan, **Janubiy Koreyada** 2010-yildan joriy etilgan elektron sudlov (e-Court) tizimida fuqarolik ishlari bo‘yicha elektron topshirish darajasi 90 foizdan oshgan bo‘lib, ariza berish, boj to‘lash va ijro jarayonlari yagona raqamli konturda amalga oshiriladi; barcha fuqarolik hal qiluv qarorlari faqat elektron shaklda chiqariladi[13]. Tizimda e-filing bilan e-payment (elektron to‘lov)ning uzviy bog‘langani ariza yuborish jarayonida bojning avtomatik hisoblanib, onlayn to‘lanishi Koreya modelining asosiy afzalligidir. 2025-yildan katta ma’lumotlar va sun’iy intellektga asoslangan “aqlli sud” bosqichiga o‘tilmoqda.

Qozog‘iston Respublikasida “sud kabineti” (office.sud.kz) servisi fuqarolarga sud organlarining barcha elektron xizmatlariga “yagona darcha” orqali kirish, jumladan davlat bojini onlayn hisoblash va to‘lash imkonini beradi, xizmatdan foydalanish milliy elektron raqamli imzo asosida amalga oshiriladi va mobil ilova orqali ham taqdim etiladi[14]. Qozog‘iston tajribasining diqqatga sazovor jihati protsessual hujjatlar deyarli to‘liq elektron shaklda taqdim etilishi va to‘lov ma’lumotlarining g‘aznachilik tizimi bilan real vaqt rejimida solishtirilishidir.

Buyuk Britaniyada Money Claim Online (MCOL) platformasi orqali pul undirish to‘g‘risidagi da’volar onlayn taqdim etilganda sud yig‘imining qog‘oz shaklga nisbatan pasaytirilgan stavkasi qo‘llanadi. Bunday “raqamli rag‘batlantirish” (digital incentive) yondashuvi foydalanuvchilarni elektron kanalga yo‘naltirishning samarali iqtisodiy vositasi sifatida e’tirof etilgan.

Estoniyada E-toimik (e-File) tizimi sud, prokuratura, politsiya va ijro organlarini yagona axborot maydonida birlashtirgan bo‘lib, davlat boji X-Road ma’lumot almashinuv platformasi orqali soliq-moliya tizimlari bilan avtomatik solishtiriladi. Bu to‘lovni tasdiqlovchi hujjat talab qilinmasligini ta’minlaydi.

Xitoyda esa 2017-yildan tashkil etilgan internet-sudlar (Xanchjou, Pekin, Guanchjou) va “aqlli sud” (smart court) dasturi doirasida sud yig‘imlari mobil to‘lov tizimlari orqali undiriladi, ayrim hujjatlarning haqiqiyligini ta’minlashda blokcheyn texnologiyasidan foydalaniladi. Rossiyada esa 2017-yildan GAS “Pravosudiye” tizimi orqali hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyati joriy etilgan[15].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy modellarning umumiy jihatlari:

1) boj hisob-kitobining e-filing jarayoniga to‘liq “qurilganligi” (embedded calculation);

2) to‘lov faktining davlat moliya tizimlari bilan avtomatik verifikatsiyasi;

3) elektron murojaat uchun moliyaviy rag‘batlar;

4) xarajatlarni oldindan prognozlash vositalarining mavjudligidir.

Raqamli texnologiyalar sharoitida sud xarajatlarini hisoblash va to‘lash tizimini optimallashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi:

– davlat bojini hisoblash algoritmini da’vo arizasini elektron shakllantirish jarayoniga to‘liq integratsiya qilish ya’ni tizim da’vo turi, talablar soni, da’vo

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bahosi va imtiyozlar asosida bojni avtomatik hisoblab, xato hisob-kitob bilan ariza yuborilishining texnik jihatdan oldini olishi lozim;

– Prezident tomonidan qo‘yilgan vazifa ijrosi sifatida sun’iy intellekt asosida “sud xarajatlari prognozi” xizmatini yaratish. Bunda fuqaro ish yuritish boshlanmasidan avval boj, ekspertiza, tarjimon va vakillik xarajatlarining taxminiy hajmini ko‘ra olishi kerak;

– ortiqcha to‘langan davlat bojini sud hujjati asosida avtomatik (proaktiv) qaytarish mexanizmini joriy etish, buning uchun Oliy sud axborot tizimini G‘aznachilik axborot tizimi bilan ikki tomonlama integratsiya qilish kerak;

– Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, elektron shaklda taqdim etilgan da’volar uchun davlat bojining pasaytirilgan stavkasini (masalan, 10-20 foiz chegirma) qonunchilikda nazarda tutish. Bunda elektron kanaldan foydalanishni iqtisodiy rag‘batlantiradi;

– ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar (ekspert, mutaxassis, tarjimon haqlari)ning yagona elektron reyestri va tarif-kalkulyatorini yaratib, ularni ish yakunida avtomatik taqsimlash modulini E-SUD tizimiga qo‘shish;

– to‘lov kvitansiyalari va sud xarajatlari taqsimotiga oid ma’lumotlarning o‘zgarmasligini ta’minlash uchun blokcheyn texnologiyasini bosqichma-bosqich qo‘llash;

– aholining raqamli-huquqiy savodxonligini oshirish, hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish hamda elektron raqamli imzo olish tartibini soddalashtirish choralarini davom ettirish.

Xulosa qilib aytganda, sud xarajatlarini hisoblash va to‘lash tizimini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish, “Raqamli sud” konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida odil sudlovga erishishni yengillashtirish, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish va budjet mablag‘larini tejashning muhim omilidir. Yuqorida keltirilgan takliflarning amalga oshirilishi sud tizimiga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017-yil 22-dekabr // Milliy inson huquqlari markazi sayti: http://nhrc.uz/oz/articles/odil-va-mustail-sud-jangi-zbekiston-pojdevori

2. Sud faoliyatini yanada yaxshilash masalalari ko‘rib chiqildi (Prezident Sh.M. Mirziyoyev raisligidagi yig‘ilish bayoni) // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: https://president.uz/oz/lists/view/7911

3. O‘zbekistonda ayrim ish turlarini eksterritorial ko‘rish joriy etiladi... (Prezidentga sud-huquq tizimini takomillashtirish, “Raqamli sud2 konsepsiyasi taqdimoti, 2025-yil 21-avgust) // Gazeta.uz: https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/21/courts/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi to‘g‘risida”gi 3250-qarori // Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 140-farmoni // Lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-qarori (ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarni hisoblash va to‘lash tartibi) //

Huquqiy portal: https://huquqiyportal.uz/document/4192?id=611

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining elektron to‘lov tizimi: https://billing.sud.uz/receipt

8. Oliy sudning interaktiv xizmatlar portali: https://my.sud.uz; Iqtisodiy sudlarga elektron murojaat qilish tartibi // Namangan viloyat sudi: https://namangan.sud.uz/uz/iqtisodiy-sudlarga-elektron-murojaat-qilish-tartibi/

9. E-SUD Milliy elektron sudlov axborot tizimi (Oliy sud, USAID va UNDP hamkorligidagi “Rule of Law in Uzbekistan” loyihasi materiallari): https://www.undp.org/uzbekistan/publications/e-sud-national-electronic-case-management-system-flyer

10. Raqamlashayotgan sud tizimi: adolat sari qo‘yilgan eng ishonchli qadam // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA), 05.09.2025: https://uza.uz/en/posts/raqamlashayotgan-sud-tizimi-adolat-sari-qoyilgan-eng-ishonchli-qadam_756906; shuningdek: https://president.uz/oz/lists/view/7911

11. Raqamlashayotgan sud tizimi: adolat sari qo‘yilgan eng ishonchli qadam // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA), 05.09.2025: https://uza.uz/en/posts/raqamlashayotgan-sud-tizimi-adolat-sari-qoyilgan-eng-ishonchli-qadam_756906; shuningdek: https://president.uz/oz/lists/view/7911

12. Sudlarga berilgan da’volarni ko‘rib chiqish jarayonini onlayn kuzatish mumkin bo‘ladi // Kun.uz: https://kun.uz/62602657

13. Jang J. Digitalization in Court Proceedings: Perspectives from Courts (Republic of Korea) // UNCITRAL materiallari: https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/jiyong_jang.pdf

14. “Sot kabineti” servisining imkoniyatlari (Qozog‘iston Respublikasi): http://office.sud.kz; https://qaz.infozakon.kz/courts/5315-sot-kabinet-servisn-mmkndkter-men-zhetstkter.html

15. Justice (electronic court filing system), GAS “Pravosudiye” // https://en.wikipedia.org/wiki/Justice_(electronic_court_filing_system)